



TALABALARNING O'QUV JARAYONIGA BO'LGAN QIZIQISHINING PASAYISHIGA TA'SIR QILUVCHI PSIXOLOGIK VA IJTIMOIY OMILLAR

Jienbaeva K.B.

*Innovatsion texnologiyalar universiteti, Psixologiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich
talabasi, Nukus, O'zbekiston*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishining pasayishiga ta'sir qiluvchi psixologik va ijtimoiy omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida motivatsiya yetishmovchiligi, stress, ota-ona bosimi, moddiy qiyinchiliklar hamda raqamli qurilmalardan noto'g'ri foydalanish kabi omillar talabalarning o'qishga bo'lgan munosabatiga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganildi. Amaliy mashg'ulot davomida talabalarning fikrlari tahlil qilinib, "Mas'uliyat doirasi" metodikasi yordamida ularning e'tibori qaysi omillarga qaratilgani aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi nafaqat psixologik va ijtimoiy omillar bilan, balki talabaning shaxsiy mas'uliyati va o'zini boshqarish qobiliyati bilan ham bog'liqdir.*

Kalit so'zlar: *motivatsiya, stress, psixologik omillar, ijtimoiy omillar, talaba faolligi, o'quv motivatsiyasi.*

Abstract: *This article analyzes the psychological and social factors influencing the decline of students' interest in the learning process in higher education institutions. The research examines several important factors such as lack of motivation, academic stress, family pressure, financial difficulties, and the influence of digital technologies on students' learning behavior. The study was conducted among psychology students of the University of Innovative Technologies. Observation, discussion and the 'Circle of Responsibility' method were used during the research. The results show that the decrease in students' academic interest is influenced not only by psychological and social factors but also by students' personal responsibility and their ability to manage attention and learning activities.*



Keywords: *motivation, academic stress, psychological factors, social factors, student engagement, digital technologies*

KIRISH

Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish muhim pedagogik va psixologik masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda bilim va malaka insonning ijtimoiy mavqeini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lsa-da, ayrim talabalar orasida o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayib borayotgani kuzatilmoqda. Bu holat nafaqat ta'lim sifatiga, balki talabaning kelajakdagi professional rivojlanishga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida psixologik holat, motivatsiya darajasi, ijtimoiy muhit, oilaviy qo'llab-quvvatlash, moddiy sharoit va zamonaviy texnologiyalar ta'siri muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida yoshlar axborot oqimining kuchli ta'siri ostida yashamoqda. Bu esa diqqatning tarqoqlashuvi, vaqtni noto'g'ri taqsimlash va natijada o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi – talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishining pasayishiga ta'sir qiluvchi psixologik va ijtimoiy omillarni ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda amaliy kuzatishlar asosida ularning o'quv motivatsiyasiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Talabalarning o'quv motivatsiyasi va o'qishga bo'lgan qiziqishi psixologiya fanida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Erik Erikson talabalik davrini shaxs identifikatsiyasining shakllanishi davri sifatida tavsiflaydi. Uning fikriga ko'ra, aynan shu davrda inson o'zining jamiyatdagi o'rnini, kelajakdagi kasbiy yo'nalishi hamda shaxsiy maqsadlarini aniqlashga intiladi. Shu sababli bu bosqichda "Men kimman?" va "Tanlagan kasbim menga qanday imkoniyatlar beradi?" kabi savollar talabalarning ichki motivatsiyasiga ta'sir ko'rsatadi [1].



Motivatsiya muammosi zamonaviy psixologiyada ham muhim tadqiqot yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Edward Deci va Richard Ryan tomonidan ishlab chiqilgan oʻz-oʻzini aniqlash nazariyasiga koʻra, motivatsiya ikki turga boʻlinadi: ichki va tashqi motivatsiya. Ichki motivatsiya shaxsning oʻz qiziqishi, qoniqishi va intilishi asosida shakllanadi, tashqi motivatsiya baholar, mukofotlar, diplom olish yoki ijtimoiy talablar bilan bogʻliq boʻladi [2].

Tadqiqotchilar taʼkidlashicha, oʻquv faoliyatida ichki motivatsiyaning ustunligi talabalarning bilim olish jarayoniga boʻlgan qiziqishini oshiradi.

Talabalarning oʻqishga boʻlgan qiziqishiga psixologik omillardan biri sifatida stress ham taʼsir koʻrsatadi. Psixologlar Robert Yerkes va John Dodson stress darajasi va faoliyat samaradorligi oʻrtasidagi bogʻliqlikni “teskari U” shaklidagi qonun orqali izohlab berganlar. Ushbu nazariyaga koʻra, past darajadagi stress motivatsiyaning pasayishiga olib keladi, optimal darajadagi stress esa faoliyat samaradorligini oshiradi. Biroq stress darajasi meʼyorida oshib ketganda diqqat susayadi, xotira faoliyati pasayadi va shaxsning oʻquv faoliyatiga boʻlgan qiziqishi kamayadi [3].

Bundan tashqari, talabalarning oʻquv motivatsiyasiga ijtimoiy va fiziologik omillar ham taʼsir koʻrsatadi. Mashhur amerikalik psixolog Abraham Maslou tomonidan ishlab chiqilgan ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasiga koʻra, insonning asosiy fiziologik va ijtimoiy ehtiyojlari qondirilmaguncha yuqori darajadagi motivatsiya shakllanishi qiyin boʻladi. Shu sababli talabaning moddiy sharoiti, xavfsizlik hissi va ijtimoiy muhitdagi oʻrni ham uning oʻqishga boʻlgan qiziqishiga bevosita taʼsir koʻrsatadi [4].

Zamonaviy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar faoliyatiga taʼsiri ham keng oʻrganilmoqda. Ayrim olimlar taʼkidlashicha, qisqa va tezkor axborot oqimi (masalan, qisqa videolar va ijtimoiy tarmoqlardagi tezkor kontent) yoshlarning diqqatini uzoq muddat davomida bir faoliyatga qaratish qobiliyatini pasaytirishi mumkin. Natijada oʻquv jarayoni ularga nisbatan kamroq qiziqarli boʻlib tuyuladi [5].



Metodologiya

Tadqiqot Innovatsion texnologiyalar universiteti psixologiya yoʻnalishi 2-bosqich 2S-PSX24 guruhi talabalari ishtirokida oʻtkazildi. Tadqiqot kichik hajmdagi empirik tadqiqot sifatida tashkil etilib, unda 45 nafar talaba ishtirok etdi.

Tadqiqot davomida talabalarning oʻquv jarayoniga boʻlgan qiziqishining pasayishiga taʼsir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida kuzatish, suhbat hamda amaliy mashgʻulot metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, talabalarning eʼtibori qaysi omillarga qaratilganligini aniqlash uchun “Masʼuliyat doirasi” psixologik metodikasi qoʻllanildi.

Mashgʻulot davomida talabalardan oʻquv jarayoniga boʻlgan qiziqishning pasayishiga taʼsir qiluvchi omillar haqida oʻz fikrlarini erkin bayon qilish soʻraldi. Shundan soʻng ular bilan “Masʼuliyat doirasi” metodikasi asosida amaliy mashgʻulot oʻtkazildi.

Mazkur metodika ikki asosiy qismdan iborat boʻlib, ular “Tashvishlar doirasi” va “Masʼuliyat doirasi” deb nomlanadi. “Tashvishlar doirasi”ga talabalarning nazoratidan tashqarida boʻlgan, ammo ularni tashvishga soluvchi omillar kiritildi. Jumladan, imtihonlarning murakkabligi, kelajakda ish topish masalasi, ota-onalar tomonidan kutilayotgan natijalar ushbu toifaga mansub omillar sifatida koʻrsatildi.


“Masʼuliyat doirasi”ga esa talabaning oʻzi nazorat qila oladigan faoliyat turlari kiritildi. Ular qatoriga darslarga tayyorlanish, vaqtni toʻgʻri taqsimlash, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish vaqtini nazorat qilish hamda oʻquv materiallarini mustaqil oʻrganish kabi faoliyatlar kiritildi. Olingan natijalar keyinchalik tahlil qilinib, talabalarning oʻquv motivatsiyasiga taʼsir qiluvchi omillar aniqlashtirildi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot jarayonida talabalar tomonidan bildirilgan fikrlar tahlil qilindi. Kuzatish va suhbat natijalariga koʻra, talabalarning aksariyati oʻqishga boʻlgan qiziqishning pasayishiga motivatsiya yetishmovchiligi, stress, moddiy qiyinchiliklar hamda ota-ona bosimi kabi omillar taʼsir koʻrsatishini taʼkidladi.



Amaliy mashg'ulot davomida qo'llanilgan "Mas'uliyat doirasi" metodikasi natijalari talabalarning o'quv motivatsiyasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga yordam berdi. Natijalar tahliliga ko'ra, tadqiqotda qatnashgan 45 nafar talabaning 12 nafari (26,7 %) o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishiga asosiy sabab sifatida motivatsiya yetishmovchiligini ko'rsatdi. Shuningdek, 10 nafar talaba (22,2 %) akademik stressni muhim omil sifatida qayd etdi. 8 nafar respondent (17,8 %) moddiy qiyinchiliklar va ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish o'quv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatkishini ta'kidladi. Bundan tashqari, 7 nafar talaba (15,6 %) ota-ona tomonidan kutilayotgan yuqori natijalar ham psixologik bosim keltirib chiqarishini bildirdi. Mazkur natijalar 1-diagrammada talabalarning o'quv motivatsiyasiga ta'sir qiluvchi omillar taqsimoti ko'rinishida aks ettirilgan.



Mas'uliyat doirasiga esa talabalarning o'zlari nazorat qila oladigan faoliyatlar, xususan darslarga tayyorlanish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, fanlarni chuqur o'rganish hamda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish vaqtini cheklash kabi omillar kiritildi. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, talabalar ko'pincha e'tiborini o'z nazoratidan tashqaridagi omillarga qaratadi. Natijada esa o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqish pasayishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishining pasayishi faqat tashqi omillar bilan bog'liq emas. Talabaning shaxsiy



maqsadi, o'zini boshqarish qobiliyati hamda vaqtni samarali rejalashtirish ko'nikmalari ham o'quv motivatsiyasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Tadqiqot natijalari talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishining pasayishi bir qator psixologik va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Jumladan, motivatsiya yetishmovchiligi, akademik stress, oilaviy bosim, moddiy qiyinchiliklar hamda raqamli qurilmalardan nazoratsiz foydalanish talabalarning o'qishga bo'lgan munosabatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan "Mas'uliyat doirasi" metodikasi natijalari talabalarning katta qismi o'z e'tiborini nazoratidan tashqaridagi omillarga qaratishini ko'rsatdi. Natijada ular o'zlari boshqara oladigan faoliyat turlariga yetarlicha e'tibor qaratmaydi va bu holat o'quv motivatsiyasining pasayishiga olib keladi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, talabaning shaxsiy maqsadlari, o'zini boshqarish qobiliyati hamda vaqtni to'g'ri rejalashtirish ko'nikmalari o'quv motivatsiyasining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Talaba o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, o'quv faoliyatini ongli ravishda tashkil qilgan taqdirda, uning o'qishga bo'lgan qiziqishi ham barqaror bo'lib boradi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirish maqsadida pedagogic va psixologik metodlardan keng foydalanish.
2. Talabalarda vaqtni boshqarish va o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan trening va psixologik mashg'ulotlarni tashkil etish.
3. Talabalarning akademik stressini kamaytirish uchun psixologik maslahat va qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish.
4. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish madaniyatini shakllantirish.



5. Talabalarning shaxsiy maqsadlarini aniqlash va kasbiy yoʻnalishini mustahkamlashga yordam beruvchi maslahat dasturlarini yoʻlga qoʻyish.

Umuman olganda, talabalarning oʻquv jarayoniga boʻlgan qiziqishini oshirish nafaqat pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishni, balki psixologik qoʻllab-quvvatlash hamda talabalarning shaxsiy masʼuliyatini rivojlantirishni ham talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Erikson E. Childhood and Society. New York: W.W. Norton & Company, 1950. [1]
2. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. New York: Plenum, 1985. [2]
3. Yerkes R.M., Dodson J.D. The Relation of Strength of Stimulus to Rapidity of Habit Formation // Journal of Comparative Neurology and Psychology. 1908. [3]
4. Maslow A.H. Motivation and Personality. New York: Harper & Row, 1954. [4]
5. Mullainathan S., Shafir E. Scarcity: Why Having Too Little Means So Much. New York: Times Books, 2013. [5]
6. Lembke A. Dopamine Nation: Finding Balance in the Age of Indulgence. New York: Dutton, 2021. [6]